

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KURBANOVA AZIZA O'KTAMOVNA

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING IJTIMOYIY-MADANIY VA MA'RIFIY
SOHASINI KLASSTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Kurbanova Aziza O'ktamovna

Umumta'lim maktablarining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish..... 3

Курбанова Азиза Уктамовна

Развитие социально-культурной и образовательной сферы общеобразовательных школ на основе кластерного подхода..... 21

Kurbanova Aziza Uktamovna

Development of the social, cultural and educational sphere of secondary schools based on a cluster approach..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

KURBANOVA AZIZA O'KTAMOVNA

**UMUMTA'LIM MAKTABLARINING IJTIMOIIY-MADANIY VA MA'RIFIY
SOHASINI KLASSTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Ped3421 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ximmataliyev Do'stnazar Omonovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Fayzullayeva Nilufar Sa'dullayevna
pedagogika fanlar nomzodi, dotsent

Maxkamov Ulfat Ilxamovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "___" _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; ye-mail: chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "___" _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil "___" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U.N.Xodjamqulov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d., dotsent

F.T.Rajabov
ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, g.t.f.d
(PhD), dotsent

V.B.Fayziyev
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., prof

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo hamjamiyatining globallashuv sari borayotgan hozirgi davrida umumiy oʻrta taʼlimga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Umumiy oʻrta taʼlimda ijtimoiy-madaniy va maʼrifiy sohani rivojlanishining oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda oʻquvchilar dunyoqarashini rivojlantirish YUNESKO, Pedagogik kommunikatsiyalar va texnologiyalar assotsiatsiyasi (AQSH), uzluksiz taʼlim instituti (Rossiya), European University Institute, Max Plank Institute kabi tadqiqot markazlarining ilmiy natijalari alohida oʻrin tutadi. Bugungi kunda umumtaʼlim maktablarida ijtimoiy-madaniy va maʼrifiy sohani rivojlantirishda oʻqitish texnologiyalarini ishlab chiqish, modellashtirish, tadqiq etish dolzarbligicha qolmoqda.

Jahonda ijtimoiy-madaniy va maʼrifiy sohani rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda umumtaʼlimning davlat taʼlim standartini tasdiqlash maktab oldiga avvalgidan koʻra sifat jihatidan yangi, beqiyos murakkab vazifalarni qoʻyadi. Taʼlim - tarbiya jarayoniga klasterli yondashuvni joriy etish qoʻshimcha taʼlim xizmatlari koʻlamini kengaytirish orqali oʻquvchilarning darsdan tashqari faoliyatning yanada rivojlangan tizimini yaratishni talab qiladi, bu esa oʻz navbatida maktabning ochiq jamiyatda keng doiradagi muassasalar va tashkilotlar bilan ijtimoiy sheriklik va oʻzaro tarmoq hamkorligini rivojlantirishni talab qiladi. Taʼlim oluvchi shaxs atrofida maktabning yagona ijtimoiy-madaniy va maʼrifiy sohasini rivojlantirish uning ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada oshirish va uning qiziqishlari, moyilliklari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda individual taʼlim trayektoriyasini qurishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ham barcha sohalar qatori umumiy oʻrta taʼlimni ham tubdan isloh qilishga katta eʼtibor qaratilyapti. 2022-2026 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Taraqqiyot strategiyasida “Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish”¹ ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu esa, umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida oʻquvchilarni qobiliyatlarini va dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy oʻrta taʼlimning maʼnaviy-maʼrifiy sohalarini yanada takomillashtirish, texnologiyalarini ishlab chiqish zaruriyatini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yil 2 fevraldagi PQ-112-son “Maʼdaniyat va fan sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”,² 2020 yil 23 sentabrdagi OʻRQ-637-son Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”³ Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”⁴ hamda 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar toʻgʻrisida”⁵ 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son “Maʼnaviy-maʼnaviy

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisidagi Farmoni// Oʻzbekiston Respublikasi Qonun xujjatlari toʻplami.-T, 2022.-B.39.”.

² Oʻzbekiston Respublikasining 2022 yil 2 fevraldagi “Maʼdaniyat va fan sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” PQ-112-son.

³ 2020 yil 23 sentabrdagi Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida” Qonuni OʻRQ-637-son.

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son.

⁵ “Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida” hamda 2021 yil 26 martdagi PQ-5040-son.

ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁶ hamda 2017 yil 29 iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa mayoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani tubdan rivojlantirish, ta'lim va tarbiya berishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash bo'yicha mamlakatimiz olimlaridan M.Mirzayev, S.Mavlonova, Sh.Mavlonov, A.Qodirov, Z.Zamonov, U.N.Xudjamqulov, S.A.Toshtemirova, SH.I.Botirova, N.M.Koshanovalarning, sohani rivojlantirish jarayonida axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammolari A.Abduqodirov, N.Azizxodjayeva, U.Begimqulov, X.Ibragimov, J.Yo'ldoshev, D.Mamatov, Sh.Mardonov, N.Nazarova N.Taylaqov, B.Xodjayev, T.Shoyardonovlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

MDH mamlakatlarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy faoliyatda o'quvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish masalasi V.D.Gatalskiy, YE.A.Kondratyeva, I.Y.Murzina, S.Kagan D.Nazarova, L.Serbina, C.Forlin, Y.Chicherina kabilar tomonidan o'rganilgan.

Xorijiy mamlakat olimlaridan Ture Yonsson, Luiz Kallan, Velma Diane, N.Jangira, K.Maylz, K.Xorton, R.Fuller I.Robert, K.Rodgers, D.Rovkin, N.Sizinseva kabi olimlar tomonidan yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniy va ma'rifiy faoliyatini rivojlantirish, o'quvchilar dunyoqarashni shakllantirish masalalari o'rganilgan.

Tahlillar asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy faoliyatda o'quvchilarning kasbiy rivojlanishini ta'minlashning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim metodlaridan foydalanish, umumta'lim muassasalarida klasterli yondashuv asosida o'zaro hamkorlik masalalarini pedagogik muammo sifatida o'rganish zarurati mavjud.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani klasterli yondashuv asosida rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab shiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumta'lim maktablarida klasterli yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

⁶ "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida, 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son.

klasterli yondashuv asosida umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishni modellashtirish;

umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

maktab o'quvchilarida qobiliyatlarini va dunyoqarashini shakllanganligini hamda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy muhitni rivojlanganlik darajalarini aniqlash, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqotning ob'yekti klasterli yondashuv asosida umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti klasterli yondashuv asosida umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, meyoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy sohani klasterli yondashuv orqali rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari insonparvarlik, huquqiy tendensiyalari hamda ijtimoiy faoliyatning nazariy-metodologik, faoliyatli, loyihaviy-tahliliy komponentlarini ta'lim jarayoniga intensiv moslashtirish asosida aniqlashtirilgan;

umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasining tarkibiy funksional modeli maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha o'ziga xos xususiyatlarini uzviylashtirishga qaratilgan funksional vazifalarini ma'naviy-axloqiy mezonlar va sinergetik tamoyillari orqali moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

umumta'lim maktablarida klasterli yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasi ta'lim oluvchilarda kasbiy potensial imkoniyatlarni o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minot muhitida texnologik jarayon bosqichlarini saqlagan holda integrativ tashkil etish asosida rivojlantirilgan;

umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari ijtimoiy faoliyat trayektoriyasiga differensial va integrativ ishlash elementlarini intensiv rivojlantirishga qaratilgan kasbiy-amaliy topshiriqlarni konsentrik uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishga qaratilgan "Qiyosiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan "Klaster", "Muammoli ta'lim", "Loyihalash" va "Keys" innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llab o'qitish shakllari, metodlari va vositalari ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plami, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari

samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib fanlararo integratsion o'qitishning konseptual metodik tizim modeliga asoslangan metodik modeli va uslubiy-metodik ta'minoti yaratilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati klasterli yondashuv asosida umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan "Qiyosiy pedagogika" o'quv uslubiy majmuasi, umumta'lim maktablari uchun "Qiyosiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanma hamda ishlab chiqilgani va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani klasterli yondashuv asosida rivojlantirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

insonparvarlik, huquqiy tendensiyalari hamda ijtimoiy faoliyatning nazariy-metodologik, faoliyatli, loyihaviy-tahliliy komponentlarini ta'lim jarayoniga intensiv moslashtirish asosida aniqlashtirilgan umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy sohani klasterli yondashuv orqali rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlariga oid takliflaridan "Qiyosiy pedagogika" nomli o'quv qo'llanmada foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 25-dekabrda 538-sonli buyrug'i). Natijada umumta'lim maktablarida ma'naviy va ma'rifiy sohani rivojlantirishning metodik ta'minoti takomillashtirilgan;

maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini uzviylashtirishga qaratilgan funksional vazifalarini ma'naviy-axloqiy mezonlar va sinergetik tamoyillar orqali moslashtirish asosida takomillashtirilgan umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasining tarkibiy-funksional modeliga oid tavsiyalari OT-F1-049 raqamli "O'quvchilarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" (2017-2021yy) mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2021 yil 3 dekabrda 02-2000-2005-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan model umumta'lim maktablarida ma'naviy muhitni yaxshilashga xizmat qilgan;

ta'lim oluvchilarda kasbiy potensial imkoniyatlarni o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minot muhitida texnologik jarayon bosqichlarini saqlagan holda integrativ tashkil etish asosida rivojlantirilgan umumta'lim maktablarida klasterli yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasiga oid takliflari asosida OT-F1-049 raqamli "O'quvchilarda assertiv xulqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" (2017-2021yy) mavzusidagi amaliy loyihaning mazmuniy komponenti ishlab chiqilgan (Jizzax politexnika institutining 2021 yil 3 dekabrda 02-2000-2005-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab texnologiya maktab o'quvchilarining dunyoqarashi va qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qilgan;

Ijtimoiy faoliyat traektoriyasiga differensial va integrativ ishlash elementlarini intensiv rivojlantirishga qaratilgan kasbiy-amaliy topshiriqlarni konsentrik uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlariga oid

metodik tavsiyalari O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanalida efirga uzatilgan "Bolalar va biz" "Ta'lim va taraqqiyot" nomli dasturlar ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi O'zbekiston teleradiokanalining 2023 yil 6-fevraldagi O'z/rv-23-11son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan mezonlar maktablarda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 tasi respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani klasterli yondashuv asosida rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida umumta'lim maktablarining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi pedagogik fenomen sifatida ko'rib chiqilgan, umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini modellashtirishda klasterli yondashuvning imkoniyatlari tahlil qilingan hamda ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klaster modellari ba loyihaviy-tahliliy komponentlarini amalga oshirish bo'yicha amaliyotlar tahlil qilingan.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani o'rganishning dolzarbligi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy sohalarda sodir bo'layotgan jadal o'zgarishlar jarayoni va bu bilan bog'liq bo'lgan talablariga javob beradigan ta'lim topshiriqlarini qayta ko'rib chiqish va qayta belgilash zaruratidan iborat. Hozirgi zamon ta'lim tizimi oldida turgan vazifalar integratsiyalash salohiyatini aniqlash va keyingi rivojlanish istiqbollari belgilash maqsadida ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy, huquqiy tendensiyalari hamda ijtimoiy faoliyatning nazariy-metodologik, faoliyatli, sohani tahlil qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Ta'lim sohasini manfaatdor shaxslar va ishtirokchilar doirasining loyihaviy integratsiyalashgan faoliyati natijasi sifatida talqin qilish mumkin. Ta'lim sohasi quyidagi tavsifli xususiyatlarga ega: ko'p funksiyalilik; ko'p yo'nalishlilik; moslashuvchanlik va o'zgaruvchanlik.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha shaxsning rivojlanish sharoitlari va imkoniyatlari majmuasini o'z ichiga oladi, shaxs joylashgan ijtimoiy-madaniy sohada shakllanadi va pedagogik jarayonning turli subyektlari tomonidan yaratiladi (N.B.Usataya). Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha "madaniyat" va "ma'rifat" o'rtasidagi munosabatni o'zida mujassam etadi. Madaniyat ta'lim mazmunining asosiy manbai bo'lib, u insonning ma'naviy va moddiy faoliyatidagi qadriyatlarini, shaxsning madaniyat tashuvchisi va yaratuvchisi sifatidagi xususiyatlari va pedagogik-psixologik shart-sharoitlari insonparvarlik fazilatlarini aks ettiradi, ta'lim esa madaniyatni o'zlashtirish maqsadiga yo'naltirilgan usul bo'lib, maktabning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy faoliyatning nazariy-metodologik, sohasida maqsadga muvofiq shakllanadigan imkoniyatlarni o'zlashtirish jarayonida hamkorlik, ijodkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun sharoit yaratadi.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha modeli rivojlanayotgan yaxlitlik sifatida quyidagilarni o'z ichiga oladi: fazoviy – semantik; mazmunli – metodik; kommunikatsion – tashkiliy (N.V.Shigaleva). "Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha" tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini aniqlab, biz umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini pedagogik fenomen sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi ta'lim oluvchilarning ta'limiy va madaniy bo'sh vaqtini o'tkazish imkoniyatlarini maksimal darajada ta'minlaydigan pedagogik-psixologik shart-sharoitlari loyihalash, insonparvarlik, huquqiy tendensiyalari va maqsadli boshqaruvchi shakllantirish obyekti bo'lishi mumkin.

Klaster – bu asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, ixtisoslashtirilgan xizmatlarni yetkazib beradigan geografik jihatdan mahalliyashtirilgan o'zaro bog'langan kompaniyalar, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar guruhi bo'lib, ular bir birini to'ldiradi va alohida kompaniyalar va yaxlit klasterning raqobatbardoshligini oshiradi. Ma'lum bir mamlakatda klasterlar qanchalik rivojlangan bo'lsa, bu mamlakatda aholining turmush darajasi va kompaniyalarning raqobatbardoshligi shuncha yuqori bo'ladi (M.Porter).

Ta'lim klasterining bir nechta funksiyalarini mavjud, bizning fikrimizcha, ularni ta'lim komponentining boshqa klasterlariga (ta'lim, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy, sport – ta'lim va boshqalar) nisbatan ham ajratish mumkin: muvofiqlashtiruvchi, sinergik, prognostik, yetakchi, birlashtiruvchi, korporativ, axborot, qayta tashkil etish funksiyalari.

Klaster – o'zaro bog'liq, o'zaro ta'sir qiluvchi va bir-birini to'ldiruvchi qo'shni subyektlar guruhi bo'lib, faoliyat samaradorligi yaxlit tizim sifatida sinergik samaradorligi tufayli alohida obyektlar natijalarining oddiy yig'indisidan oshib ketadi. Klasterli yondashuv – mavjud klasterlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish hamda yangi klasterlar yaratish orqali muayyan hudud, tarmoq, davlatning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan zamonaviy boshqaruv texnologiyasidir.

Umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi tarmoqlangan, murakkab boshqariladigan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klasterdan iborat. Maktabning (umumta'lim muassasasining) yagona ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi yagona makonda ma'lum bir hududning o'ziga xos muammolarini hal qiladigan va uning imkoniyatlaridan foydalanadigan nazariy-metodologik, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klaster vazifasini bajaradi. Demak, klasterli yondashuv orqali ijtimoiy faoliyatning nazariy-metodologik jihatlari, jamiyatdagi faoliyatli, ta'lim jaryoni va ijtimoiy holatini

loyihalash, tahliliy komponentlarini ta'lim jarayoniga intensiv moslashtirish zarurati mavjud.

Hozirgi kunga qadar mamlakatimiz hududlari nafaqat ta'lim sohasidagi, balki butun ijtimoiy sohada ham ta'lim sohasidagi dolzarb muammolarni kompleks hal qilish uchun ta'lim, ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy, sport-ma'rifiy, ijtimoiy-madaniy - ma'rifiy klasterlarni yaratishda katta tajriba to'plagan. Bunday klasterlarni yaratishda odatda sherikchilik hujjatlari va o'zaro hamkorlik algoritmlari tuziladi. Shunday qilib, maktab o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy sohani klasterli yondashuv orqali rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning kelajak ijtimoiy faoliyatni loyihalashtirish, mantiqiy va tahliliy komponentlarini ta'lim jarayoniga intensiv moslashtirish muhim pedagogik muammo bo'lib, bitiruvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning asosi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani klasterli yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida umumta'lim maktablarining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, ta'lim klasteri yondashuviga asoslangan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini modellashtirish hamda klasterli yondashuv asosida umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyalari keltirib o'tilgan.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klasterlarni shakllantirish jarayoni maktabning shaharning yagona ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohada o'zini o'zi belgilashi, manaviy-axloqiy mezonlar va sinergetik tamoyillari o'z vazifasini anglashi va shakllantirishi, o'z qiyofasini topishi bilan bevosita bog'liqdir. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish jarayoni murakkab va uzoq davom etadi, shuning uchun uni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarni tizimlashtirish va tavsiflash tavsiya etiladi. Pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik tizimning elementlaridan biri tushuniladi, bu ta'lim muhiti imkoniyatlari yig'indisi bo'lib, uning harakati ushbu tizimning shaxsiy va jarayoniy tomonlariga ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasi samarali ishlashiga yordam beradi.

Tadqiqotimizda pedagogik shartlarning uch guruhini ajratamiz: tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik. Tashkiliy-pedagogik shartlar guruhiga o'quv klasteri subyektlari va o'quv faoliyatining tashkiliy shakllari o'rtasidagi o'zaro ta'sir qilish usullari to'plami kiradi, ular amaliy bilimlarni rivojlantirish uchun mazmuniy elementlarini maqsadli rejalashtirish natijasidir.

Psixologik-pedagogik shartlarga biz ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishga ta'sir qilishning aniq pedagogik chora-tadbirlarini ta'minlashga va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga yordam berishga qaratilgan bir qator shartlarni olamiz. Shu bilan birga, ta'sir mustaqillik, fikrlashning tanqidiyligi va samaradorligi, harakatlarni haqiqatan ham baholash, umumlashtirish va yakuniy natijaga erishish kabi muhim shaxs xususiyatlariga ta'sir qiladi.

Didaktik shartlar guruhi - bu umumiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan (o'quvchilarning kasbiy o'zini o'zi belgilashini shakllantirish) mazmun elementlarini, o'qitishning tashkiliy shakllari va usullarini tanlash, loyihalash, ulardan foydalanish natijasidir. Bu guruhda o'quvchilarning amaliy ishlar majmuini, muammoli-vaziyatli vazifalarni, baholash vositalarini o'z ichiga olgan integral amaliyotga yo'naltirilgan

texnologiyani amalga oshirishga yordam beradigan shart-sharoitlar alohida o'rin tutadi.

“Maktab o'quvchilari madaniyatini rivojlantirish” loyihasi ishlab chiqilgan. Loyihaning maqsadi - o'quvchining umummadaniy dunyoqarashini manaviy-axloqiy va shaxsiy ijodiy faoliyatini kengaytirish orqali uning ijodiy va ma'naviy salohiyatini rivojlantirishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu loyihaning maqsadi: insonning ijtimoiy-estetik idealini tasvirlarda aks ettirish natijasida san'at bilan umumiy tanishish; g'oyani amalga oshirish uchun asos sifatida texnologik bilim va ko'nikmalar va estetik tajribasini shakllantirish; maqsad qo'yishni biladigan, vositalarni tanlay oladigan va o'z rejasini amalga oshira oladigan ijodkor shaxs sifatlarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu loyiha rivojlantiruvchi va ta'limiy tavsifga ega bo'lib, badiiy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish faoliyatiga jalb qilishdan iborat. Loyihasini amalga oshirish uchun maktab bilan quyidagi muassasalar hamkorlik qildi: Qarshi shahar madaniyat markazi, Qashqadaryo viloyati kutubxonasi, Qarshi drama teatri, Yoshlar markazi hamda harbiy muzey.

Ijtimoiy hamkorlikning ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klaster modelini yaratish zaruriyatidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, bugungi kunda Qarshi, Chirchiq va Jizzax shahrining Zafarobod tumanidagi maktablariining ta'lim-tarbiya muhiti bolalarni aniq belgilangan o'ziga xos tarbiyaviy topshiriqlar asosida quyidagi qo'shimcha tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi: yoshlar ijodiy uyi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi. Demak, Umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasining tarkibiy funksional modeli maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining barcha o'ziga xos xususiyatlarini uzviylashtirishga qaratilgan ta'lim klasteri sub'ektlarining funksional vazifalarini belgilash lozim bo'ladi.

Mazkur modelning maktabda tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining ma'naviy-axloqiy mezonlar va maktab rahbariyati, OTM bilan hamkorligini ta'minlovchi sinergetik tamoyillari orqali moslashtirish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bunda OTM bilan maktab o'quvchilarning uzluksiz pedagogik amaliyotini o'tash shaklida hamkorlik amalga oshiriladi. Maktab va OTM o'rtasidagi o'zaro hamkorlik maktab rahbariyati tomonidan innovatsion ta'lim sohasida va ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuviga asos bo'ladi.

Klasterli yondashuv asosida umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini rivojlantirish tajribasini ko'rib chiqish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, shaharda paydo bo'layotgan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy klasterlarning yaratilishi ko'p hollarda bolalarga qo'shimcha ta'lim berishning dolzarb muammolarini hal qilish va “kun bo'yi” maktab g'oyasini amalga oshirish zarurati bilan bog'liq. Ko'plab klasterlar tabiiy ravishda hududiy yaqinlik va umumiy ta'lim maktablari va bolalar uchun qo'shimcha ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning ko'p yillik tajribasi asosida yaratiladi.

Klasterli yondashuv asosida shakllantirilgan umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasi doirasida pedagogik jarayonni tashkil etish tamoyillari quyidagilar: 1. Insonparvarlik tamoyili, 2. Tabiiy muvofiqlik tamoyili, 3. Ta'limni tashkil etishda guruhli ta'sir etish tamoyili, 4. Integratsiya tamoyili, 5. Tarmoq hamkorligi tamoyili, 6. Optimallashtirish, 7. Innovatsiya tamoyili, 8. Sinergiya tamoyili.

Klasterli yondashuv asosida shakllantirilgan umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy soha modeli maktabning qo'shimcha ta'lim muassasalari, sport va

madaniyat muassasalari, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, turli darajadagi metodik xizmatlar bilan o'zaro hamkorlik asosida quriladi. Shunday qilib, maktablar faoliyati tahlili shuni ko'rsatdiki, klaster yondashuvi asosida shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasida: badiiy – estetik, sport – sog'lomlashtirish, loyiha – tadqiqotchilik, texnik, ekologik – biologik, ma'naviy – axloqiy, harbiy-vatanparvarlik, kasbga yo'naltirish, dam olish va ko'ngil ochish, ijtimoiy - o'zgaruvchan kabi faoliyat yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Klasterli yondashuv asosida shakllantirilgan umumta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohasini ilmiy-metodik ta'minlash oliy ta'lim muassasalari va ilmiy muassasalar mutaxassislarini jalb etgan holda ochiq metodik platformalar yaratishni nazarda tutadi, bu esa o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, o'quvchilar va yosh o'qituvchilar uchun amaliyot o'tash joylari, malaka oshirishning yangi shakllarini, shu jumladan masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni joriy etishni ta'minlaydi.

Pedagogik jarayonning mazmunini aniqlash uchun biz asosiy komponentlarni aniqlashga asoslangan vazifalarni tasniflash imkonini beruvchi klasterli yondashuvdan foydalandik, ular ijtimoiy-madaniy faoliyati jarayonida o'quvchilar tomonidan shakllanishi kerak (motivatsion-irodali, faoliyatli-jarayoniy, refleksiv-baholovchi). Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan model to'rt blokdan tashkil topdi: maqsad, mazmun, jarayon va natija (1-rasm).

Modelning mazmunli blokining o'ziga xosligi shundaki, pedagogik jamoasi nafaqat madaniyatni efirga uzatish va amalga oshirish funksiyasini bajaradi, balki pedagogik jamoa a'zosining o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi belgilash va ijtimoiylashuvini faol rag'batlantiradi. Binobarin, pedagogik jamoa ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy fenomen sifatida ikki yo'nalishda harakat qiladi: tashqi, ya'ni bolalar va o'smirlar bilan ma'naviy va ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ishtirokchilar o'rtasida kasbiy potensial qobiliyatlarni shakllantirish va jamoaning faoliyatini va o'sishini ichki tashkil etish.

Natija bloki ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish mezonlarini taqdim etadi. Adabiyotda mezonlar muammosiga turli yondashuvlar belgilangan, odatda ular obyektning qabul qilingan namuna bilan munosabatini o'rnatish uchun biror narsani taqqoslash yoki ta'kidlash uchun namuna bo'ladigan har qanday standartlar, ko'rsatkichlar, belgilar, xususiyatlar, sifatlarni hisobga oladi.

Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish bo'yicha biz tomonidan ishlab chiqilgan modeli o'zaro bog'liq bloklarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p bosqichli dinamik tizim sifatida ko'rib chiqiladi: maqsadli, mazmunli, jarayonli va natija. Maktablarda ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadli jarayonini yanada aniqroq ko'rsatish, qo'yilgan maqsadning eksperiment davomida olingan yakuniy natijaga muvofiqligini aniqlaydi. Natija, maktabda ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari sifatida ma'naviy-axloqiy mezonlarga mos topshiriqlarni bajarishga sinergetik tamoyillar orqali moslashtirishni nazarda tutadi. Umumta'lim maktablarning yagona madaniy-ma'rifiy sohasini tashkil etish bo'yicha klasterli yondashuvni amalga oshirish tajribasini tahlil qilgan holda, aytish mumkinki, madaniy-ma'rifiy klasterlarni umumta'lim muassasalari negizida institutsional rasmiylashtirish amalga oshirildi. Biroq, qonuniy ravishda ro'yxatdan o'tgan klasterlardan tashqari, aslida ko'plab klasterlar bor va ularning faoliyat natijalari juda muhim. Biroq, hujjatlashtirish klasterini rivojlantirish, uni rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochish yo'lidagi muhim qadam emas, u ko'p jihatdan hamkorlar tarmog'ining yangi maqomi va imkoniyatlaridan xabardorligi bilan bog'liq.

Klasterli yondashuv asosida shakllantirilgan maktabning madaniy-ma'rifiy sohasini tashkil etish samaradorligining eng muhim o'lchov birligi qo'shimcha bilan qamrab olingan, to'garaklar, seksiyalar, klublar, studiyalar, badiiy, xoreografik, musiqa, sport va boshqa qo'shimcha ta'lim muassasalariga qatnashuvchi ta'lim oluvchilar soni hisoblanadi. Uning funksional modeli maktab turini, ta'lim-tarbiya jarayonining barcha o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, davlat va ijtimoiy buyurtmani samarali bajarish maqsadida ta'lim muassasasi oldidagi vazifalarni hisobga olgan holda tarmoq o'zaro hamkorlar o'rtasidagi davlat va xususiy sheriklik modeli maktabning funksional vazifalariga to'liq mos keladi. Tajribalarimizga tayangan holda, umumiy ta'lim muassasalari, o'quv markazlari, madaniyat va sport muassasalarining yagona klaster doirasidagi tarmoq va idoralararo hamkorligi jamiyat va ta'lim muassasalarining resurslarini optimallashtirish imkonini beradi.


Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishdagi keys texnologiyasidan foydalanish alohida metod sifatida emas, balki yaxlit ta'lim texnologiyasi sifatida ko'rib chiqishni talab qiladi, bular quyidagilar: 1) kasbiy yo'naltirilgan muammo asosiy o'rinda turadi; 2) o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati; 3) qo'llaniladigan metodlar ijtimoiy muammoni hal qilishga qaratiladi; 4) kasbiy yo'naltirilgan ta'lim jarayoni tashkil etiladi; 5) keyingi faoliyatida o'quvchilarni kasbiy rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi.

Keys-texnologiyasidan foydalanish, bizga tadqiqotimizda keys texnologiyalaridan foydalanishni o'rganish imkonini berdi: egallangan bilimlarni kasbiy faoliyat sohasiga o'tkazishni ta'minlaydigan pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati; DTS talablariga binoan, keys-texnologiyasini qo'llash vazifasini boshqarish standart va nostandart vaziyatlarda qaror qabul qilish uchun zarur; ta'lim jarayoniga kasbiy faoliyat elementlarini kiritish. Umumta'lim maktablarida klasterli yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish texnologiyasi ta'lim oluvchilarda kasbiy potensial imkoniyatlarni oshiradi. Ta'lim jarayonida keys-texnologiyasini amalga oshirish amaliy imkoniyatlari sifatida o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan didaktik ta'minotni keltirish mumkin. Biz ushbu texnologiyasi ijtimoiy sohaning ayrim masalalarini emas, balki umumiy bo'limni o'rganishda qo'llaniladi. Bu esa, umumta'lim maktablarida klasterli yondashuv asosida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish muhitida texnologik jarayon bosqichlarini saqlagan holda ularning integrativ asoslarini ta'minlaydi.

Keys texnologiyasining o'zi keysning turli bo'limlarni o'z ichiga oladi: to'garaklar, mustaqil ishlar, ijodiy kechalar va boshqalar. Keys-texnologiyalarining majmui uning tarkibi, tuzilishi va natijasi, faoliyat metodlarini shakllanganligi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini shakllanganligi bilan belgilanadi.

Keys janr sifatida uch qismdan iborat bo'ladi: 1. Keys mazmunini yorituvchi faoliyat yig'indisi; 2. Aniq vaziyatni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan malumotlar tizimi; 3. Keysni tahlil qilish uchun topshiriqlarni shakllantiruvchi.

Tadqiqotimiz davomida klasterli ta'limni amalga oshirish quyidagi bosqichlarda olib borildi: Mini klasterlar faoliyatini tashkil etish: 1-klaster umumta'lim maktablarida ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qiladi, 2-klaster umumta'lim maktablarida ma'naviyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Makroklaster o'z navbatida miniklasterlardan tashkil topgan (2-rasm).



2-rasm. Umumta'lim maktablarida ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishnin klasterli modeli

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan klasterli model umumta'lim maktablarida ijtimoiy madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

1-klaster umumta'lim maktabi, kutubxonalar, nashriyot uylari, oliy ta'lim muassasalari, yozuvchilar uyushmasi;

2-klaster umumta'lim maktabi, mahalla fuqarolar yig'ini, madaniyat maskanlari, hokimiyat, sportni rivojlantirish boshqarmasi, san'at sohasi vakillari.

Ijtimoiy-madaniy va ma'rifiy sohani rivojlantirish bo'yicha biz tomonimizdan olib borilgan tadbirlarda differensial ta'lim texnologiyasi, evristik texnologiya, illyustrativ ta'lim texnologiyasi va keys texnologiyasidan samarali foydalanildi.

Differensial ta'lim texnologiyasi - o'qituvchiga zaiflarga yordam berish, kuchlilarga e'tibor berish imkonini beradi. Ushbu texnologiya yordamida kuchli o'zlashtiruvchilar ta'limda tez va chuqur bilim olishga erishadilar. Kuchli o'quvchilar o'zlarining qobiliyatlarini takomillashtiradilar, bo'sh o'zlashtiruvchilar o'qish muvaffaqiyatini his etish hamda o'z qobiliyatlari doirasida o'zini namoyish qilish imkoniga ega bo'ladilar, ta'limning rag'batlantirish darajasi oshadi.

Bunday ta'lim texnologiyasini tashkil etish natijasi – har bir o'quvchining individual xususiyatlarining (qobiliyatlarining) yuzaga chiqishi va rivojlanishidir.

Evristik ta'lim - bu o'quvchi tomonidan ta'limning o'z shaxsiy mazmuni, maqsadlari va tuzilishini, shuningdek uni tashkil etish, diagnostika va tushunish jarayonini tayyorlashni o'rganishini maqsad qilib oluvchi ta'lim hisoblanadi.

